

FARG'ONA VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-mart*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 73-241-97-68*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7 952 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 144 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 808 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5 838,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 107,7 % ga yetdi. Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 515,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5 323,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 523,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 120,2 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	5 838,3	107,7
shaharlar		
<i>Farg'ona</i>	1 120,2	109,8
Qo'qon	821,8	106,3
Quvasoy	89,9	107,4
Marg'ilon	722,2	108,9
tumanlar		
Oltiariq	331,0	109,0
Qo'shtepa	118,5	106,2
Bag'dod	143,3	108,6
Buvayda	284,6	104,5
Beshariq	288,0	109,7
Quva	321,3	107,9
Uchko'prik	619,9	106,9
Rishton	146,2	109,1
So'x	155,2	105,9
Toshloq	192,7	106,1
O'zbekiston	84,2	105,1
Farg'ona	166,3	103,0
Dang'ara	104,7	107,8
Furqat	58,4	107,4
Yozyovon	69,8	107,1


2024- yilning yanvar-mart oylarida 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona sh (**109,8** %), Beshariq (**109,7**) va Rishton (**109,1**) tumanida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-mart)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,7 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023- yil ,2024-yil yanvar-mart oylari)



2024- yilning yanvar-mart oylarida o'sish sur'ati **107,7 %** ni tashkil qildi.



Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'm
Farg'ona sh.	1 120,2
Qo'qon sh.	821,8
Marg'ilon sh.	722,2
Uchko'prik	619,9
Oltiariq	331,0
Quva	321,3
Beshariq	288,0
Buvayda	284,6
Toshloq	192,7
Farg'ona	166,3
So'x	155,2
Rishton	146,2
Bag'dod	143,3
Qo'shtepa	118,5
Dang'ara	104,7
Quvasoy sh.	89,9
O'zbekiston	84,2
Yozyovon	69,8
Furqat	58,4

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri 19,2 % bilan 1 120,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Furqat tumani 1,0 % bilan 58,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi


2024-yilning yanvar-mart oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 5 323,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 7,5% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,2 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 9,4 % ga o'sdi va 515,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining


8,8 % ulushiga to'g'ri keldi.



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)





CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha So'x t (99,3 %), Toshloq t (99,0 %) va Quvasoy (98,8 %) shahari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko'prik tumani (32,0 %), Farg'ona (12,5 %), shahrida kuzatildi.

8,8 %

91,2 %





Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda



2024- yilning yanvar-mart oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

1 434,3 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 105,5 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Farg'ona (3 472,4 ming. so'm), Marg'ilon (2 844,6 ming. so'm) va Qo'qon (2 661,4 ming. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-mart), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy voki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	523,8	120,2
shaharlar		
Farg'ona	68,7	157,4
Qo'qon	53,2	135,1
Quvasoy	10,6	96,8
Marg'ilon	46,1	87,3
tumanlar		
Oltiariq	14,8	138,6
Qo'shtepa	17,5	54,2
Bag'dod	33,3	324,3
Buvayda	63,7	104,1
Beshariq	68,0	152,4
Quva	45,3	145,5
Uchko'prik	13,6	86,4
Rishton	29,6	139,2
So'x	12,1	196,0
Toshloq	11,7	89,3
O'zbekiston	11,2	111,1
Farg'ona	5,2	40,6
Dang'ara	2,9	98,6
Furqat	0,3	31,8
Yozyovon	15,8	102,3


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari**
(2024- yil yanvar-mart)



**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm**
(2024- yil yanvar-mart)














Viloyat bo'yicha

2024- yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 523,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 120,2 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 309,0 mlrd. so'mni (116,0%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 214,8 mlrd so'mni tashkil etdi (126,8 %).













2024-yilning yanvar-mart oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 309,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (113,6 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>113,6 mlrd. so'm</p>  <p>36,7 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>28,9 mlrd. so'm</p>  <p>9,4 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>50,5 mlrd. so'm</p>  <p>16,4 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>14,5 mlrd. so'm</p>  <p>4,7 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>18,6 mlrd. so'm</p>  <p>6,0 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>18,7 mlrd. so'm</p>  <p>6,0 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>9,8 mlrd. so'm</p>  <p>3,2 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>8,0 mlrd. so'm</p>  <p>2,6 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>7,6 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>9,9 mlrd. so'm</p>  <p>3,2 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>4,2 mlrd. so'm</p>  <p>1,3 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>24,7 mlrd. so'm</p> <p>8,0 %</p>

2024- yilning yanvar-mart oyida, Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 214,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 168,3 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 43,1 mlrd. so'mni, otlar – 2,2 mlrd. so'mni, parrandalar – 1,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.


Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>91,4 mlrd. so'm</p>  <p>42,5 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>43,9 mlrd. so'm</p>  <p>20,4 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>33,0 mlrd. so'm</p>  <p>15,4 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>42,3 mlrd. so'm</p>  <p>19,7 %</p>	<p>Otlar</p> <p>2,2 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>0,8 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,6 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,01%</p>		

2024- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 946 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 943 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	149,6	105,8
shaharlar		
Farg'ona	57,2	110,4
Qo'qon	12,0	108,9
Quvasoy	2,3	98,6
Marg'ilon	20,7	105,8
tumanlar		
Oltiariq	4,6	104,0
Qo'shtepa	2,9	108,2
Bag'dod	2,8	106,1
Buvayda	2,1	107,4
Beshariq	4,3	105,4
Quva	5,5	106,5
Uchko'prik	5,3	100,4
Rishton	3,6	103,2
So'x	4,1	99,2
Toshloq	4,5	98,4
O'zbekiston	2,4	92,8
Farg'ona	5,0	93,8
Dang'ara	3,9	97,7
Furqat	3,6	103,2
Yozyovon	2,8	98,5

2024- yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 149,6 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 96,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Farg'ona viloyati	1 006,9	100,0
Shaharlar		
Farg'ona	272,9	27,1
Qo'qon	494,1	49,1
Quvasoy	2,9	0,3
Marg'ilon	74,1	7,4
Tumanlar		
Oltiariq	8,4	0,8
Qo'shtepa	1,6	0,2
Bag'dod	1,0	0,1
Buvayda	7,5	0,7
Beshariq	1,2	0,1
Quva	0,7	0,1
Uchko'prik	7,4	0,7
Rishton	1,3	0,1
So'x	9,8	1,0
Toshloq	7,9	0,8
O'zbekiston	1,2	0,1
Farg'ona	1,4	0,1
Dang'ara	34,2	3,4
Furqat	14,8	1,5
Yozyovon	64,4	6,4


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qo'qon (494,1 mlrd. so'm), Farg'ona (272,9 mlrd. so'm) va Marg'ilon (74,1 mlrd. so'm) shahalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-mart oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 006,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 34,5 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 404,7 mlrd. so‘m (o‘sish sur‘ati – 142,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 602,2 mlrd. so‘mni (o‘sish sur‘ati – 3,0 m ko‘paydi) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3776,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 18,4 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 3 150,6 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 83,4 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 4 461 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 25 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 436 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Uchko'prik t (2,4 m.), Farg'ona sh (1,2 m.) va Quva (1,1 m.) tumanlarida kuzatildi.

	Hajmi, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	3 776,6	118,4
Shaharlar		
Farg'ona	939,6	120,2
Qo'qon	796,7	107,9
Quvasoy	62,3	104,0
Marg'ilon	730,8	110,4
Tumanlar		
Oltiariq	91,5	94,2
Qo'shtepa	44,3	101,2
Bag'dod	29,1	101,5
Buvayda	67,7	106,3
Beshariq	24,7	104,2
Quva	36,5	117,8
Uchko'prik	478,9	238,1
Rishton	7,1	102,7
So'x	3,2	106,7
Toshloq	221,1	104,1
O'zbekiston	50,3	104,8
Farg'ona	85,3	100,4
Dang'ara	78,3	105,4
Furqat	14,9	95,8
Yozyovon	14,5	98,9